

**BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKASIDA SINF DAN TASHQARI ISHLARNI  
TASHKIL ETISH**

**Ashurova Go'zalxon Komil qizi**

*Buxoro davlat pedagogika instituti*

*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada sinfdan tashqari ishlarning mazmuni, sinfdan tashqari ishlarning boshlang'ich sinflarda ahamiyati, matematikadan sinfdan tashqari ishlarning turlari va uning mazmun-mohiyati, matematik kechalar, olimpiadalar haqida hamda matematik o'yinlar, Tangram o'yini haqida so'z yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *matematik viktorina, ekskursiya, konkurs, matematik burchak, ertaliklar, matematik kechalar, qiziqarli matematika, olimpiada, mozaika, tangram.*

Sinfdan tashqari ishlar-maktablardagi o'quv-tarbiyaviy ishlarning bir qismi bo'lib, o'quvchilarining bo'sh vaqtlarini tashkil etish shakllaridan biridir. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarini barkamol shaxs, komil inson sifatida shakllantirishda va ularni hayotga tayyorlashda keng imkoniyatlar yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarga o'quvchilar bilanm o'tkaziladigan hamda bilim va tarbiya berishga qaratilgan turli usullar tizimi kiradi.

Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarining qiziqishi, xohish-istiklari, ehtiyojlariga tayangan holda ularning darsdan bo'sh vaqtlarida o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi va o'quvchilarining bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga yordam beradi. U o'quvchilarining ijodiy, kreativ qobiliyatlarini, tashabbuskorligini, jamoa bilan ishslash qobiliyatlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sinfdan tashqari ishlarning yana bir muhim jihat shundan iboratki, o'quvchilar shu jarayonlarda shaxs sifatida shakllana boradilar va o'ziga xos qobiliyatlarini anglab boradilar. Sinfdan tashqari ishlar ham muktab jarayonining bir qismi bo'lib, o'quvchilarining bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishning bir qismidir.

1993-yilda "Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar" konsepsiysi xalq ta'limi vazirligi tomonidan tashkil qilingan. Sinfdan tashqari ishlarning ta'limiy ahamiyati-o'quvchilarga qo'shimcha bilim, malaka va ko'nikmalar shakllantiriladi. Sinfdan tashqari ishlarning tarbiyaviy ahamiyati-o'quvchilarining jamoa bilan ishslash, ijodiy faoliyat ko'rsatishga, nutqini shakllantirish va nutq odobini o'rgatishga, mustaqil fikrlashga o'rgatishda yordam beradi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchilarining vazifalari ko'p qirralidir. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi:

Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejorashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish.

□ O'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari ko'p qirrali ishlarni o'quvchilar tashkilotlari sinf faollari yordamida yo'lga qo'yish.

□ Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalari, sinf faollariga uslubiy yordam ko'rsatish.

□ Umummaktab va maktablararo o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirdarda qatnashish.

□ O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish. Bu borada tashkilotchilar faolligini uchta asosiy tomonini korish mumkin: tashkilotchilik, uslubiy va mamuriy.

Matematika fanidan ham sinfdan tashqari ishlarning turli usullari bor. Quyidagilar matematikadan sinfdan tashqari ishlardir:

Matematik o'n minutliklar

Matematik to'garaklar;

Matematik kechalar;

Viktorinalar;

Matematik konkurslar;

Matematik olimpiadalar;

Matematik burchaklar tashkil qilish;

Matematik devoriy gazetalar;

Qiziqarli matematika soati;

Matematik ekskursiyalar;

Matematik ertaliklar;

Matematik matbuot;

Matematik ertaklar.

Matematik o'n minutliklar, asosan, 1-sinflarda o'tkaziladi. Bir haftada bir marta, butun sinf bilan o'tkaziladi. Matematik o'n minutliklarda beriladigan topshiriqlar darslikdan tashqari bo'lishi, qiyinchilik darajasi o'quvchilarning Yoshi va bilish darajasiga mos bo'lishi juda muhimdir. Topshiriqning javoblari tez topilishi kerak, agar hisoblashga asoslangan topshiriqlar bo'lsa, faqatgina og'zaki hisoblashga doir bo'lishi kerak. Bu o'quvchilar bir hafta davomida o'rgangan bilimlarini mustahkamlash imkonini beradi.

Matematik to'garak sinfdan tashqari ishlarning eng muhim va keng tarqalgan turidir. Matematik to'garakning asosiy vazifasi matematikaga qiziqadigan o'quvchilar bilan alohida, chuqurlashtirilgan holda o'rgatiladigan, o'quvchilar bilan ishlanadigan muhim ish. To'garaklarni tashkil etish va ishtirok etish ixtiyoriy hisoblanadi. 1-sinflarda to'garaklar birinchi yarim yillikdan keyin tashkil etilishi kerak. Asosan, 3 -4-sinflarda bir oyda 2-3 marta 30-45 daqiqa davomiyligida o'tkazilishi belgilab berilgan. Parallel sinflarning o'wquvchilari bilan birga tashkil qilinishi mumkin va u matematiklar klub deb yuritiladi.

Matematik kechalar ya’ni, matematikaga oid tadbirlar tashkil etish ham sinfdan tashqari ishlarga kiradi. Bunda o’quvchilar tomonidan turli matematik olimlarning qilgan ishlari, hayot yo’llari sahnalashtirilishi mumkin. Undan tashqari tomoshabinlar bilan savol-javoblar ham tashkillashtirish mumkin.

Viktorinalar turli parallel sinflar orasida o’tkazilishi mumkin. Zakovat o’yini tashkil etish ham maqsadga muvofiqdir. Undan tashqari sinfdgi o’quvchilar guruhlarga bo’linib, o’zaro savol-javob o’tkazadilar.

Matematik konkurslar-bunda o’quvchilar yakka yoki jamoa bilan ishtirok etadigan o’yinlar, tanlovlardan kiradi. Bunda turli matematik mazmundagi topshiriq, masala, misollar beriladi. Bular yechishga asoslangan bo’lishi kerak.

Matematik konkurslar qiyinroq masalalarini yechish bo'yicha va topqirlilik, tashabbuskorlik talab qiluvchi topshiriqlarni bajarishga asoslangan o'ziga xos musobaqadan iborat.

Matematik olimpiadalar kengroq tarzda o’tkaziladi va o’quvchilarning matematikada o’rgangan bilimlarini, yutuqlarini namoyon etishning o’ziga xos turidir. Olimpiadalar asosa 4-sinf o’quvchilari orasida o’tkaziladi. Olimpiadalar 2 bosqichda amalga oshiriladi. 1-bosqich sinfdagi o’quvchilar orasida o’tkaziladi va 8 balldan yuqori olgan o’quvchilar 2-bosqichga o’tkaziladi. 2-bosqich muktab bosqichi sanaladi. Unda 1-bosqichdan o’tgan 4-sinf o’quvchilari qatnashadilar.

Matematik matbuot sinf gazetalari, viktorina uchun savollar tuzishga, matematik adabiyotga qiziqtirish uchun ba’zi ma’lumotlarni oladilar.

Matematik ekskursiyalar 1-2-sinflarda tabiat qo’yniga, muktab bog’iga sanoq materiallarini yig’ish uchun o’quvchilar olib chiqiladi, 3-4-sinflarda esa daraxtlarni, gullarni sanash, hovuzning diametrini o’lchash, geometrik shakllarni toppish, uning modelini tuzish uchun o’quvchilar ochiq havoga, tabiat qo’yniga olib chiqiladi. O’quvchilarni ekskursiyaga olib chiqish uchun o’qituvchidan katta tayyorgarlik talab qilinadi. Ekskursiyaga boradigan joylari bilan oldindan tanishib olishi, ekskursiya davomida qanday ishlar amalga oshirilishi, o’quvchilarga o’zlarini qanday tutishi kerakligini uqtirishi kerak. Undan keyin o’quvchilarni ekskursiyaga olib chiqish mumkin.

Ertaliklarni tashkil etish uchun o’yinlar bilan tanishish va ularni o’tkazishdan iborat bo’ladi. Ba’zida esa KVN tarzida, turli musobaqalar shaklida o’tkazish mumkin. Ertaliklar yarim yilda yoki chorakda barcha parallel sinflarda 1 marta o’tkaziladi.

Matematik burchaklar barcha sinflarda tashkil qilinishi mumkin. Matematik burchakda turli matematik vositalar, ko’zgazmalar, matematik jadvallar, allomalarning suratlari, devoriy gazetalar joy olishi mumkin. Matematik burchakni tashkil etishda o’uvchilar, ota-onalar va o’qituvchi birdek faol ishtirok etishi kerak. Matematik burchakka javobgar o’quvchilar ham tayinlanadi. Ular mburchakni bezashda va o’qituvchi bo’lmagan vaqtida undagi tartibga javobgar bo’lishadi.

Matematik o'yinlar turlicha bo'ladi. Masalan, o'quvchilar yaxshi ko'radian mozaika o'yini. Bu o'yinda o'quvchilar mozaika bo'laklarini ketma-ket joylashtirib turli naqshlar va figuralar hosil qiladilar. Bundan tashqari yana bir o'yin bu-tangram. Bu o'yin Xitoyda 3000 yil paydo bo'lgan. U "Yetti donolik ko'rsatkichlari" degan ma'noni bildiradi. U quyidagi 7 shakldan iborat:

- 2 ta katta uchburchak;
- 1 ta o'rta to'rtburchak;
- 2 ta mayda uch urchak;
- 1 ta kvadrat;
- 1 ta parallelogram.

Shu berilgan shakllar orqali o'quvchi turli narsa, buyum va jonzotlarning shakllarini yasashlari kerak bo'ladi. O'yinning 1600 yechimi bor.

Qiziqarli matematikada o'quvchilarga qiziqarli matematik savollar, krassvordlar, rebuslar va topishmoqlar aytildi, Bundan tashqari o'quvchilarning bilim darajasiga qarab ularning o'zlariga krassvord va rebus tuzish topshiriqlari berilishi mumkin.

Oxirgi vaqtarda turli matematik ertaklar yozilmoqda. Har bir boshlang'ich sinf o'quvchisi, albatta, ertakni juda ham yaxshi ko'radi. Ertak orqali berilgan bilim uni yodidan chiqmaydi. Shu sababdan matematik ertaklarni ham bilim berish jarayonida roli katta deb hisoblayman.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Jo'rayeva.G.S "Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning maqsadi, mazmuni, shakllari ( matematika darslari misolida)/ cyberleninka.ru
- 2.uz.m.wikipedia.org/ Sinfdan tashqari ishlar.
3. M.J.Saidova "Matematika o'qitish metodikasi" darslik. Durdona-2022
4. MOOCSP.RU/ Tangramga qanday yozish kerak. Maktabgacha tarbiyalanuvchilar uchun rasmlar:jumboqni rivojlantirish